XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-70-174-5-70-K/23 Konimex tuman hokimiligi

Konimex tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlashto‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O`zbekiston Respublikasining 2023 yil 25 dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O`RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 26 dekabrdagi 01-12/20-05-38/3686-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Konimex tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Konimex tumani tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari 26 216 200 ming so‘m, xarajatlari 127 080 858 ming so‘m, viloyat mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar 100 864 658 ming s`om shundan, aksiz solig`i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag`lar 6 419 888 ming so`m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2024 yil uchun Konimex tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.Quyidagilar:

2024 yil uchun tumanning tuman mahalliy byudjetidan byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2024 yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6.2024 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7.2024 yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1 149 175 ming so'm miqdorida belgilansin.

Belgilab qo'yilsinki, tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tuman byudjetining zaxira jamg'armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

2024 yil uchun tumanning tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

8.O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 25 oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan:

a) "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq byudjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir

mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman(shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman(shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida6 mlrd. so‘m mablag‘ rejalashtirish belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Saitov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Beknazarov), Davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) va mas’ul muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

Kadastr agentligi tuman filiali (A.Qurbonov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Konimex tuman bo‘limi (T.Sirojov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Kambag‘allikni qisqartish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (U.Mirsanov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasibilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auction» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov), tuman moliya bo‘limi (I.Beknazarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagiajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni2024 yilning 1 sentabridan kechiktirmaytegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosaritashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Tuman irrigatsiya bo‘limi (D.Yarashev) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Tursunov)bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

19. Tuman iqtisodiyot vamoliya bo‘limi(I.Beknazarov):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

20. Xalq deputatlari tuman Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat

o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

21. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining kamida 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda,tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligituman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

22. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Saitov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24. Mazkur qaror “Kenimex tani”gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **R.Ro`ziyev**

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tumanning 2024 yilgi tumanning yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	X
3.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	X
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	108,7
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	108,5

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Mikdori (ming. so‘m)
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	0,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 579 200,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	0,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	0,0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	0,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 604 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	0,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 916 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 117 000,0
13	Davlat boji	0,0
14	Jarimalar	0,0
15	Ijara to‘lovi	0,0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0

17	Yig‘imlar	0,0
JAMI Daromad		**26 216 200,0**

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, Jami		**127 080 858,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**127 080 858,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	**0,0**
1	**Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**20 994 342,0**
	shu jumladan:	
	- maktabgacha ta’lim	7 144 376,0
	- umumiy ta’lim	13 849 966,0
2	**Sog‘liqni saqlash**	**51 181 939,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	51 181 939,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Tuman Madaniyat va turizm bo‘limi**	**1 745 747,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 745 747,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**2 623 223,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 623 223,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 001 046,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 001 046,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**3 365 592,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 365 592,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**1 140 604,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 140 604,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman soliq inspeksiyasi**	**3 059 337,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 059 337,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**135 091,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	135 091,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Konimex tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**19 078 841,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 078 841,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
11	**Tuman iqtisodiyot va bo‘limi**	**1 951 225,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 951 225,0
	shu jumladan: saqlash xarajatlariga	1 951 225,0
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	
	Viloyatdan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan transfertlar	
	Indeksatsiya mablag‘lari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi**	**1 816 147,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 816 147,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Tuman hokimligi**	**17 573 624,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 573 624,0
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	2 282 984,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	21 000,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	1 149 175,0
	Xalq qabulxonasi	96 882,0
	Xokim yordamchilari	1 647 507,0
	Tuman oila va xotin qizlar bo‘limi	1 070 184,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	235 469,0
	Tuman ijtimoiy ko‘nikma markazi	56 242,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	11 014 181,0
14	**"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**414 100,0**

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Konimex tumani	100	100	10	100	100

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
5-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

mln. so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**26 216 200,0**	**127 080 858,0**
Konimex tumani	26 216 200,0	127 080 858,0

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori (ming so‘mda)**	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*
JAMI	**100 864 658,0**	**6 419 888,0**
Konimex tumani	100 864 658,0	6 419 888,0

Xalq deputatlari Konimex
tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-174-5-70-K/23-son
qaroriga
7-ilova

Tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming so‘mda)
	JAMI	**347 749**
1	Konimex tumani	**347 749**